

## INKLYUZIV TA'LIMDA PEDAGOG XODIMLAR VA OTA-ONALAR HAMKORLIGINING MUHIM JIHA TLARI.

**Otayeva Salamat Sabirovna**

Ma'mun universiteti, “Psixologiya va sport” kafedrası o'qituvchisi

Gmail: [otayevasalamat@gmail.com](mailto:otayevasalamat@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish, pedagog xodimlarning individual dasturlarni ishlab chiqishdagi roli va ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyati yoritiladi. Psixologlar, maxsus pedagoglar va tyutorlar o'quvchilarning ehtiyojlariga mos darslarni tashkil etib, ota-onalar bilan birgalikda ta'lim jarayonini samarali ravishda tashkil qiladilar.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, pedagog xodim, ota-onalar bilan hamkorlik, individual ta'lim dasturlari, ta'lim jarayoni, maxsus pedagoglar, tyutor, psixologik yordam.

Inklyuziv ta'lim – bu umumta'lim (ommaviy) maktablarda sog'lom o'quvchilar bilan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni birgalikda, o'zaro uyg'un tarzda ta'lim olishlarini ta'minlash jarayonidir. Ushbu yondashuv ta'lim tizimida barcha o'quvchilarga, ularning individual xususiyatlariga qarab, teng imkoniyatlar yaratishni maqsad qilgan. Bu ta'lim tizimi nafaqat ta'lim muassasasida, balki jamiyatda ham tenglik va inklyuzivlikni ta'minlashga yordam beradi.

Inklyuziv ta'limni joriy qilishda va qo'llab-quvvatlashda, avvalo, Respublikada huquqiy-me'yoriy bazani mustahkamlash va uni amaliy jarayonga tadbiiq etish katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida” gi Qarori 2021-yil 12-oktabrda qabul qilingan.

Maktablarda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilarining salohiyatini rivojlantirish maqsadida o'quvchilar uchun individual o'quv dasturlari ishlab chiqiladi. Ushbu dasturlarni ishlab chiqishda pedagog xodimlar va ota-onalar o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatish zarur. Pedagoglar, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlashda ota-onalar bilan maslahatlashib, ularning uyda o'quvchilarga ko'rsatadigan qo'llab-quvvatlashlari haqida ma'lumotlar olishadi.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflardagi ta'lim-tarbiya jarayonining nazorati sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ota-onalar, o'quvchilarning rivojlanishi va muammolariga doir o'z tavsiyalarini berishlari, pedagoglarga o'quvchilarning uy sharoitidagi xatti-harakatlarini tushunishga yordam beradi.

“Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida” gi Nizomda “Maktabda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar hududiy aholi ehtiyoji va ota-onalar taklifiga asosan **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi** hamda hududiy ta'lim boshqarmalarining buyrug'iga ko'ra tashkil etiladi.”<sup>1</sup> -deb ko'rsatilgan. Nizomga muvofiq, inklyuziv ta'limni amalga oshirishda pedagoglar faoliyati va ota-onalar bilan hamkorlik, o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish va ta'lim jarayonini tizimli tashkil etishning asosiy tarkibiy qismidir. Shuningdek, o'quvchilarni o'qitish metodikasini ishlab chiqishda quyidagilar hisobga olinadi:

- Tyutorning ta'lim jarayonidagi to'liq yoki qisman ishtirokining zarurligi;
- Yengillashtirilgan individual kun tartibini tashkil etish (topshiriqlar hajmi, hafta davomida qo'shimcha dam olish kuni va boshqalar);
- O'quvchilarning individual xususiyatlariga mos dars mashg'ulotlarini tuzish;
- Umumrivojlantiruvchi va fanlarga oid mashg'ulotlarni individual va guruh shaklida o'tkazish;
- Psixolog, maxsus pedagog va boshqa mutaxassislar tomonidan sinfda va maktabdan tashqari korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish.<sup>2</sup>

Inklyuziv ta'lim sinfida pedagog xodimning vazifalari:

1. **Ta'lim jarayonini nazorat qilish:** Pedagog xodim ta'lim jarayonini rejalashtiradi, darslarni o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtiradi va o'quvchilarning rivojlanishini kuzatadi.
2. **Individuumga moslashtirilgan dasturlar:** Pedagog xodim o'quvchilarning ehtiyojlariga asoslangan individual o'quv dasturlarini ishlab chiqadi va ta'lim jarayonini shunga mos tashkil etadi.

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-5679836>

<sup>2</sup> “Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida” gi Nizom, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qaroriga1-ilova.

3. **Korreksion pedagogika metodlarini qo‘llash:** Pedagog xodim o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos koreksion-pedagogik metodlarni tanlaydi va ishlatadi.
4. **Ota-onalar bilan hamkorlik:** Pedagog xodim ota-onalar bilan yaqindan ishlaydi, o‘quvchilarning ta‘limi va rivojlanishi yuzasidan maslahatlar beradi.
5. **Sog‘lom psixologik muhit yaratish:** Pedagog xodim inklyuziv sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Inklyuziv ta‘lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflaridagi o‘quvchilarga individual ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirishda yordam maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) tomonidan ta‘minlanadi.

Maxsus pedagoglar koreksion ta‘limni olib boradi, mashg‘ulotlarning mazmuni va metodlarini tanlaydi, alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga korreksion-pedagogik, tibbiy yordam ko‘rsatilishini muvofiqlashtiradi, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda umumiy mashg‘ulotlarni, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg‘ulotlarni olib boradi. Ota-onalar o‘quvchilarni uyda qo‘llab-quvvatlashni davom ettirib, o‘qituvchilar bilan birgalikda o‘quvchilarning samarali o‘rganishlariga hissa qo‘shadilar. Zarurat bo‘lganda o‘quvchilar bilan qo‘shimcha yakka tartibda mashg‘ulotlar tashkil etiladi va bu jarayon ham ota-onalar bilan doimiy aloqa o‘rnatib, ularning faol ishtirokini ta‘minlashni talab qiladi.

Tyutorlar o‘quvchilarning o‘quv-tarbiya jarayonida faol ishtirokini ta‘minlash va ularning individual ta‘lim dasturlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishda yaqindan yordam beradi. Ular ta‘lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish, shuningdek, o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos individual sharoitlar yaratish orqali o‘qish jarayonini soddalashtiradi. Tyutorlar, o‘quvchilarning davlat ta‘lim standartlari talablariga mos ravishda o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishini nazorat qilib, bolaning o‘quv yuklamasini va imkoniyatlarini tahlil qiladi va kerakli o‘zgarishlar kiritish bo‘yicha takliflar beradi. Bundan tashqari, tyutorlar ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda o‘quvchilarning ta‘limiy qiziqishlarini aniqlash, shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Inklyuziv ta‘limni joriy qilishda maktab psixologi har bir o‘quvchining psixik salomatligini himoya qilish maqsadida o‘quvchini individual rivojlantirish (oilada va inklyuziv ta‘lim sharoitida ta‘lim berish) dasturlarini tuzishda, o‘quvchilar bilan guruhlarda mashg‘ulotlar olib borishda, o‘quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o‘rganish va ularni tarbiyalash bo‘yicha ota-onalarga maslahatlar berishda yordam beradi.

Yuqoridagi pedagog xodimlarning vazifalarida har bir mutaxassis o‘quvchilarni o‘qitish va rivojlantirish jarayonida ota-onalar bilan doimiy aloqada bo‘lib, samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi ta’kidlangan.

Mutaxassislarning oilalar bilan faoliyati uchta yo‘nalishda amalga oshiriladi.

-Ta'lim yo‘nalishida ota -onalarga ta'lim - tarbiyada yordam berishni o‘z ichiga oladi;  
- O‘qitishga yordam ota -onalarning pedagogik madaniyatini shakllantirishga va ularni tarbiyalashga qaratilgan.

- Tarbiyada yordam berish oilaning tarbiyaviy salohiyatini mustahkamlash maqsadida maxsus tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish orqali amalga oshiriladi.<sup>3</sup>

Maktab o‘qituvchilari tomonidan ta’limga alohida extiyojli bolalarni tarbiyalashda oilaning ko‘rsatgan faoliyati va hissiy yordamini yuqori baholash, oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Buning uchun, birinchi navbatda, o‘qituvchi va ota-ona o‘rtasida hissiy aloqa, ishonch, hurmat va o‘zaro bir birini qabul qilish muhimdir. Ota-onaning fikrlarini inobatga olish va ularning yordami hamda maslahatlari maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlaydi. Bunday yondashuv, shuningdek, ota-ona va bola o‘rtasidagi sog‘lom va o‘zaro ishonchli munosabatlarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ota-onalar bilan hamkorlikni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishlashni quyidagi ko‘rinishlarida ish ko‘rish maqsadga muvofiq:

#### **Ota-onalar bilan bevosita ishlash:**

- **Uchrashuvlar va ma'lumot almashish:** Ota-onalar bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, o‘quvchilarning muvaffaqiyatlari va kelajak rejalari haqida ma'lumot berish.
- **Maxsus kurslar:** Ota-onalar uchun ta'lim mavzularida maxsus kurslar o‘tkazish.
- **Madaniy tadbirlarga jalb qilish:** Madaniy tadbirlarga ota-onalarni taklif qilish.
- **Suhbatlar va muhokamalar:** Ota-onalar bilan farzandlarining ta'limi va kelajakdagi rejalari bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish.

#### **Ota-onalar bilan bilvosita ishlash:**

- **Mutaxassislar bilan bog‘lanish:** Ota-onalarga psixolog, o‘qituvchi, direktor bilan bog‘lanish usullari haqida ma'lumot berish.
- **Ko‘rgazmalar:** Ota-onalar uchun kitoblar va uslubiy adabiyotlar ko‘rgazmasini tashkil etish.

<sup>3</sup> U.Fayziyeva, S. Mo‘minov “Inklyuziv ta’limda tiflopedagog o‘qituvchining o‘rni va ahamiyati” T.2021 y 12.b

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 06. June 2025**

- **Test natijalari:** Test jarayonlari va natijalarini tushuntiruvchi bukletlar tayyorlash.
- **Uy vazifalari va takliflar:** Ota-onalar uchun uy vazifalari yoki bo‘lajak tadbirlar haqida takliflar taqdim etish.
- **So‘rovnomalar:** Ota-onalarning ehtiyojlari va fikrlarini aniqlash uchun so‘rovnomalar yuborish.
- **Stendlar:** Ota-onalar uchun bolalarining muvaffaqiyatlari va tadbirlar haqida stendlar tashkil etish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish, ularning ta‘lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta‘minlash va inklyuziv jamiyatni yaratish yo‘lida mustahkam poydevor bo‘ladi. Ya‘ni, o‘qituvchilar pedagogik faoliyatlarini milliy qadriyatlar asosida olib borishlari va ota-onalar bilan doimiy aloqada bo‘lishlari orqali kelajakda inklyuziv ta‘lim tizimi boshqa davlatlar uchun ham o‘rnak bo‘la oladigan mukammal tizimga aylanishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi VM “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori 2021-yil.
2. “Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida” gi Nizom, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi qaroriga 1-ilova
3. U.Fayziyeva, S. Mo‘minov “Inklyuziv ta‘limda tiflopedagog o‘qituvchining o‘rni va ahamiyati” T.2021 y 12.b
4. <https://lex.uz/docs/-5679836>

**Research Science and  
Innovation House**